



Jizzax davlat  
Pedagogika  
Universiteti

TARIX FAKULTETI

# HISTORY AND SOCIETY

ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО  
общественный электронный  
Журнал

№ 1

JOURNAL  
2024



## TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

2024-yil 1-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar  
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, tarix metodikasi

**Bosh muharrir:** Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD),  
dotsent.tarix fakulteti dekani

**Bosh muharrir** Pardayev A.H. JDPU, tarix, t.f.n.,  
**o‘rinbosari:** dotsent

**Mas’ul kotib:** Karimova N.I JDPU, tarix,t.f.b.f.d (PhD)

### TAHRIRIYAT A’ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), professor
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), professor
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, professor
14. Kobzeva.O.P. - tarix fanlari doktori, professor
15. G‘ofurov J.I – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o‘qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi

**Dizayner va sahifalovchi:**

**Karimova. N.I**

## MUNDARIJA

1. **MUNDARIJA** \_\_\_\_\_ 3-4
2. **TARIX FANINI O'QITISHDA TARIXIY-BADIIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI.** Ahror Pardayev Hasanovich. Zokirova Muxlisa. \_\_\_\_\_ 5-9
3. **TURONNING BOHODIR VA DONO AYOLLARI.** Boltayev Abdurasul. Olim Mamarasulov. \_\_\_\_\_ 9-14
4. **SOHIBQIRON AMIR TEMUR VA UNING HARBIY MAHORATI.** Boltayev Abdurasul. Abdullayev Abdulaziz \_\_\_\_\_ 15-18
5. **MUSTAQILLIK YILLARIDA JIZZAX SHAHRINI ZAMONAVIY QIYOFAGA KELTIRISH.** Abdurasulova Dilbar To'raevna . Soatov Diyor \_\_\_\_\_ 19-24
6. **FRIGIYA PODSHOLIGI.** Xamrayev G'ayrat G'aniyevich. Jumaqulova Diyora Ergashboy qizi. \_\_\_\_\_ 25-29
7. **KUSHON DAVLATI TARIXI VA MADANIYATI XUSUSIDA.** O.Abdig'apparov. Nabiyeva Farmuda. \_\_\_\_\_ 29-34
8. **MISR MADANIYATINING O'ZIGA XOS JIHLTLARI.** O.Abdig'apparov. Naxalboyev Fozilbek. \_\_\_\_\_ 34-38
9. **TA'LIMGA MILLIYLIK RUHI ASOSIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH SAMARADORLIGIGA OID.** J.O.Saidov. Shukurova Maftuna Alisher qizi. \_\_\_\_\_ 38-43
10. **G'ARBIY YEVROPADA YANGI DAVR MADANIYATINING SHAKLLANISHI.** To'ychiyeva Dilnoza Ikromovna. Yo'ldoshev Bektemir Tursunboy o'g'li. \_\_\_\_\_ 44-49
11. **ABDURAHMON JEVACHI — ERK VA OZODLIK KURASHCHISI.** B.Mirkomilov. Sh.Boymatov. \_\_\_\_\_ 49-53
12. **РОЛЬ ЖЕНШИН В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (КОНЕЦ XIX И НАЧАЛО XX ВЕКА).** Каримова Наргиза Икрамовна. Акрамова Навбахор. \_\_\_\_\_ 53-58
13. **ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ СРЕДНЕЙ АЗИИ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА.** Каримова Наргиза Икрамовна. Бобокулова Севинч. \_\_\_\_\_ 58-64
14. **DAVLATCHILIK TARIXIMIZDA SIYOSIY TRANSFORMATSIYANING NAMOYON BO'LISHI** Jamshid.Eshboyevich. Toshboyev. Abdug'aniyev Jahongir. \_\_\_\_\_ 64-68
15. **TARIXIY ARXEOLOGIK MANBALAR VA UNING QADIM TARIXIMZDA TUTGAN O'RNI HAQIDA.**Furqat.Eshboyevich.Toshboev. R. Nosirova . \_\_\_\_\_ 69-73
16. **LARSA SHAHRI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR.** Tugalov Boburjon Baxodir o 'g'li. Karimov Boburjon Bobomurod o'g'li. \_\_\_\_\_ 73-78
17. **ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ В СРЕДНЕЙ АЗИИ (В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛО XX ВЕКА).** Каримова Наргиза Икрамовна, Машарипова Нодира. \_\_\_\_\_ 78-84
18. **TEMURIYLAR DAVRIDA SIYOSIY JARAYONLAR.** Burxonov Lazizjon Salimjon o'g'li. Nurullayeva Farangiz Dilshod qizi. \_\_\_\_\_ 85-89
19. **ТРАДИЦИИ И ОБЫЧАИ КАРАКАЛПАКОВ.** Каримова Наргиза Икрамовна Джумамуратова Инобат. \_\_\_\_\_ 89-93
20. **YOZMA MANBALARDA KESH VA NAXSHAB TARIXINING YORITILISHI** Jo'raqulova Nurmohi Ne'matulla qizi. Bobur Karimov. \_\_\_\_\_ 94-100
21. **KRIPTOGRAFIYA NIMA SABABDAN PAYDO BO'LDI YOXUD ILK SHIFRLASH NAMUNALARI.** Mirkomilov Baxtiyor.Axmedova Dildora Erkinjon qizi \_\_\_\_\_ 100-105

## FRIGIYA PODSHOLIGI

**Xamrayev G‘ayrat G‘aniyevich**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

**Katta o‘qituvchisi**

**Jumaqulova Diyora Ergashboy qizi**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

**Tarix fakulteti talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola qadimda Kichik Osiyo hududining markaziy va g‘arbiy qismida joylashgan hamda o‘ziga hos tarixga ega bo‘lgan Frigiya podsholigining tashkil topishi uning davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizimi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar.** Xett-luviylar, Frakiylar, Frigitlar, Sivilizatsiya, Kichik Osiyo, Troada, Gordiya, Sangariy, Troya jangi, Gomer, Attisa, Gordion, Midas, Gerodot, qazilma boyliklari, qadimgi mashg‘ulotlari va xo‘jaligi.

**Аннотация.** В данной статье речь идет о создании Фригийского царства, расположенного в центральной и западной части Малой Азии и имеющего уникальную историю, о его государственном управлении, социально-экономическом и политическом устройстве.

**Ключевые слова.** Хетты, фракийцы, фригийцы, Цивилизация, Малая Азия, Троада, Гордиас, Сангарий, Троянская война, Гомер, Аттис, Гордион, Мидас, Геродот, окаменелости, древние занятия и экономика

**Annotation.** This article is about the creation of the Phrygian kingdom, located in the central and western part of Asia Minor and having a unique history, about its government, socio-economic and political structure..

**Keywords.** Hetty, frakiytsy, frigiyytsy, Civilization, Asia Minor, Troas, Gordias, Sangarius, Trojan War, Homer, Attis, Gordion, Midas, Herodotus, fossils, ancient occupations and economics

G‘arb va Sharq asrlar davomida ikki yirik supersivilizatsiya hisoblanadi. Sivilizatsiya – kishilik mushtarakligining eng yuqori cho‘qqisi ekan, bugungi kunda ham til, tarix, din, urf-odat singari umumiy mutlaqo obyektiv jihatlari bilan

sivilizatsiyalar bir-biridan ajralib turadi. aksariyat sivilizatsiyalarning yo‘q bo‘lishiga, unitilishiga ma’naviy inqiroz sabab bo‘lishini tarixdan yaxshi bilamiz [Эшов Б., 2005, 8 б]. Zero birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov o‘zlarining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarlarida bu borada: “Shuning uchun ham Sharq yoki G‘arb mamlakatlari bo‘ladimi, olis Afrika yoki Osiyo qit‘asi bo‘ladimi – jahonning qaysi burchagida bo‘lmasin, ma’naviyatga qarshi qandaydir tahdid paydo bo‘lgan bo‘lsa, o‘zining bugungi kuni va ertangi istiqbolini o‘ylab yashaydigan har bir ongli inson, har bir xalq tashvishga tushishi tabiiy, albatta” [Каримов И.А., 1998. 32.б] – degan edilar. Haqiqatdan ham mstaqilik sharoitida nafaqat o‘z tariximiz balki, dunyo xalqlari tarixi, ularning sivilizatsion jarayonlardagi ishtirokini o‘rganar ekanmiz, eng avvalo o‘tmish sivilizatsiyalarining vujudga kelishi, rivojlanishi va inqirozi masalalariga to‘xtalib, ularning sabablari va oqibatlari xususida tegishli xulosalarga ega bo‘linadi.

O‘ziga hos sivilizatsiyaga ega bo‘lgan Kichik Osiyo hududining markaziy va g‘arbiy qismida joylashgan Frigiya davlati bo‘lib uning asoschisi (er.av 750-yil atrofida) kelib chiqishi dehqon bo‘lgan Gordiy nomli “ butun osiyoni egallab olgan va mashhur Gordiy tugunini tuggan kishi bo‘lganli haqida ayrim ma‘lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari Frigiya podsholigi er.avv VIII asr o‘rtalarida gullab yashnagan. Mamlakatdan ko‘p irmoqli Sangariy daryosi oqib o‘tib, Qora dengizga quyiladi. Bundan tashqari, uning iqlimi mo‘tadil bo‘lib, yog‘ingarchilik bahor va qish oylarida ko‘proq bo‘ladi, qishi mo‘tadil. Ayrim manbalarda keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, qadimgi frikiyada xetlarga qarindosh qabilalar yashagan. Mil. avv II mingyillik o‘rtalarida bu yerga Makedoniya va Frakivadan juda ko‘p qabilalar ko‘chib kelib joylashgan va keyinchalik ular o‘zlarini frigiylar deb atagan va mahalliy aholiga qo‘shilib ketgan. Mil avv II mingyillikning 2- yarmida ular Frigiya podsholigiga asos soladilar [Rajabov.R.R., 2015. 48 б].

Kichik Osiyoning g‘arbiy qismida Troyada viloyati bo‘lib, mil.avv. III ming yillikda bu yerda Troya shahri yuzaga keladi. Mil.avv.XXII asrda shahar noma‘lum sabablarga ko‘ra yonib ketgan. Mil.avv.XVIII asrda esa qayta tiklanadi.

Bu shahar aholisi haqida Xett-luviylar, Frakiylar, Frigitlar, yunonlar bo'lgan degan farazlar mavjud. Troya savdo-sotiqda yunonlar bilan raqobatda bo'lgan. Taxminan mil.avv.1240 yillarda yunonlarning hujumi bo'lib o'tadi. Keyinchalik Troya Frigiya va Lidiya, so'ngra Fors davlati tarkibiga kiradi. Frigiya va uning aholisi haqida, ularning shimoliy-g'arbdan kelganligi (Makedoniya yoki Frakiya), dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganliklari taxmin qilinadi. Mil.avv.XIII asrda ular Troya ustidan ham hukmronlik o'rnatadilar. Xett davlati qulagach Frigiya o'z hududlarini sharqqa tomon kengaytiradi. Mil.avv.XII asrda Yefrat daryosi yuqori oqimlari uchun kurashda Ossur qo'shinlaridan yengiladi. Frigiyada Gardiya va Midos hukmronlik qilgan davrda bu davlat Osiyodagi qudratli davlatga aylandi. Mil.avv. VIII asrda Frigiyada Kimmeriylar, yunonlar, vifiniyaliklarning hujumlari kuchayib bu davlat inqirozga yuz tutdi va Lidiya ta'siriga tushib qoladi [Orziyev M.3. Эргашев Ж.Ю., 2018. 52.б].

Bizgacha yetib kelgan boshqa bir ma'lumotlarga qaraganda, frigiya podsholigi er.avv. XIII asr o'rtalarida bolqon yarimorolidagi o'zini frigiyali deb atashgan va qabilalar Kichik Osiyoga kirib keladilar. yuz yildan keyin boshqa Bolqon qabilasi Qoradengiz bo'yi briglari kichik Osiyoga kelib, bu yerdagi birinchi to'lqin qisman assimillatsiya qilib qisman siqib chiqardi. Yangi birlik Frigiyaliklar Ilion (Troya) shahrini to'la buzib tashlaydilar bundan tashqari er.avv.VIII asr o'rtalarida Frigiya davlati amalda butun Kichik Osiyoni Egey dengizidan Tavr va Urartuvgacha bosib olib o'zini gullab-yashnagan pallasiyga kirdi. qolaversa frigiya podsholigi er. avv. 717-yil atrofida Midas, Tavr va klikiyani bo'ysundirdi [Rajabov R.R., 2009. 108 б].

Frigiya podsholigining xo'jaligi haqidagi ma'lumotlarga to'xtaladigan bo'lsak, uning qulay tabiiy sharoiti va mehnatkash axolisi xo'jaikning hamma tarmoqlarini rivojlanishiga imkon bergan. Antik davr tarixchilari Gomer va Geradotlarning ma'lumotlariga ko'ra, frigiyaliklar bog'dorchli va yilqichilikda shuhrat qozongan. Mamlakat dehqonlari va bog'bonlari arpa, bug'doy, tariq, kunjut, anjir, olma, nok, uzum ekib ulardan yuqori hosil olgan.

Ular qo‘y, echki, xachir, eshak va ot boqib chorvachlikka ham katta etibor berganlar. Ho‘kiz, eshak, xachirdan xo‘jalik maqsadlarida, otlardan esa otlardan esa harbiy maqsadlarda foydalanilgan. Bundan tashqari Frigiya tog‘lari oltin, kumush, qo‘rg‘oshin, va boshqa madanlarga boy bo‘lgan. Shu bois u yerda tog‘-kon sanoati, temirchilik, qurolsozlik, zargarlik, memorchilik, kulolchlik, to‘qimachlik va xo‘jalikning boshqa sohalari ham yuksak darajada rivoj topgan edi [Fулoмoв X.Ф, Tатибoев A.С., 1993. 29 б].

Frigiya podsholigi uzoq-yaqin qo‘shni mamlakatlar va xalqlar bilan, ya’ni yunonlar, misirliklar, lidyaliklar, ossurlar, urartlar bilan qizg‘in savdo-sotiq ishlarini olib borgan. Qolaversa Frigiyaliklar qo‘shni xalqlar madaniyatidan baxramnd bo‘lib, o‘zlariga xos ma’aniyat yaratganlar.

Ularning Gordiya va Midas kabi shohlari ilm-fan sanat va madaniyat homiylari bo‘lgan. Kichik Osiyo yunonlarning alifbosi asosida o‘z yozuvlarini yaratgan. Ilm-faning turli sohalarida shuningdek adabiyot sohasida ham katta yutuqlarga erishgan. Frigiyaliklarning darate nomi bilan mashhur bo‘lgan shoiri Gomergacha Frigiya iliadasini yozganligi ma’lum. Ulardan kuy, raqs, qo‘shiqchlik, sanati ham ancha rivoj topgan [A. Kabirov., 2016. 78 б].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, ushbu maqolani yozish va o‘rganish davomida Frigiya davlati haqida o‘zimiz bilmagan ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘ldik. Bu davlat Kichik Osiyoning markaziy va g‘arbiy qismidagi qadimgi davlatlardan biri ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shunday qilib dunyo tarixida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan Frigiya davlatining vujudga kelishi, rivojlanishi va inqirozi masalalarini bizning fikrimizcha, muhim ijtimoiy – siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan muamo deb qarash va uni keng miqiyosda, dunyoning barcha mamlakatlari va xalqlari hayotiga daxldor masala sifatida o‘rganish, tahlil qilish va baholash maqsadga muvofiqdir. Ushbu maqola ana shunday savollarning ayrimlariga javob beradi degan umiddamiz.

### **Foydalangan adabiyotlar**

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., 1998. – В.32.
2. Эшов Б. Цивилизация тизимида илк шаҳарлар. Тошкент, 2005. –В.8.

3. Rajabov R.R. “ Qadimgi Sharq” Yunoniston, Rim, “ yangi asr avlodi” Toshkent-2015. – B.48.
4. Орзиев М.З. Эргашев Ж.Ю. Жаҳон цивилизациялари тарихи (Ўқув-услубий қўлланма). Вухоро-2018. – В.52.
5. Rajabov R.R. “Qadimgi dunyo tarixi” Sharq yunoniston Rim fan va texnologiy Toshkent-2009. –В.108.
6. Фуломов Х.Ғ., Татибоев А.С. “Ўрта Осиё ва жаҳон тарихи”. Т., 1993.-В.29.
7. Kabirow A.“ Qadimgi sharq tarixi” tafakkur nashiryoti Toshkent-2016. – В.78.